

O'ZBEK TILINI XORIJLIK TALABALARGA BOSHLANG'ICH DARAJADA O'RGATISHDA QO'LLANADIGAN MATNLAR VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR

N. Rasulov ¹

Annotatsiya:

Til ta'limi bugun har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda va yurtimizda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha boy tajriba mavjud, ammo o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha tajribalar mukammal emas. Xususan, xorijlik talabalarga o'zbek tilini o'qitishda til bilishning boshlang'ich darajasida qaysi matnlardan foydalanish muammosi metodik jihatdan ko'rib chiqilmagan. Ushbu maqolada matn haqida nazariy mushohada yuritilgan. Ta'lim jarayonida matnlarni qanday tanlash va taqdim qilishga doir ba'zi mulohazalar aks etgan.

Kalit so'zlar: matn, dialogli matn, boshlang'ich daraja, texnik matn, kundalik matn, autentik matn, nountentik matn.

Matn – gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan nutq ko'rinishi. [1; 3] O'zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda matnga ana shunday ta'rif keltirilgan. Lekin shuni ta'kidlab o'tish ham kerakki, matn tilshunosligiga oid bir qator ilmiy manbalarda bir so'z, bir necha so'z, bir necha gap, bir necha abzats, bir necha bob matn maqomiga ega bo'lishi mumkinligi haqida ham mulohazalar mavjud.

Biz matnning lingvistik xususiyatlariga emas, balki o'qitish jarayonida matnlardan qanday foydalanish kerakligi masalasiga to'xtalmoqchimiz. Metodika ilmida matn xususida lingvistikadagi qarashlardan biroz farqli fikrlar mavjud bo'lishi mumkin.

Rasmiy CEFR yo'riqnomalariga ko'ra tilning A1 darajasiga ega bo'lgan kishi kundalik iboralarni va juda oddiy jummalarni tushunishi hamda foydalanishi mumkin, ular aniq ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'ladi; o'zini va boshqalarni tanishtira oladi, yashash joyi, taniyidigan insonlari va ega bo'lgan narsalari haqida savol bera oladi hamda shu mavzuda javob bera oladi; agar suhbatdoshi sekin va ravshan gapirsa hamda yordam berishga tayyor bo'lsa, oddiy tarzda muloqot qila oladi.

O'sha yo'riqnomaga ko'ra tilning A2 darajasiga ega bo'lgan kishi eng zarur mavzularga oid jumalar va tez-tez ishlatiladigan iboralarni tushuna oladi (masalan, juda oddiy shaxsiy va oilaviy ma'lumotlar, xarid qilish, joylashuv, ish bilan bog'liq ma'lumotlar); tanish va kundalik mavzularda oddiy va bevosita ma'lumot almashishni talab qiluvchi sodd va odatiy vazifalar doirasida muloqot qila oladi; o'zining kelib chiqishi, atrof-muhit va eng zarur ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni oddiy so'zlar bilan tasvirlay oladi. [2]

Biz yuqorida chet tilini bilishning boshlang'ich (A1, A2) darajasini tavsiflab oldik. Mana shu mazmunga xos matnlardan grammatika va leksikani mustahkamlashda ta'lim jarayonida qanday foydalanish kerakligi haqida qisqacha to'xtalamiz.

Matn – bu mantiqiy va lingvistik jihatdan bog'langan so'zlar birikmasi yoki gaplardan iborat bo'lib, ma'lum bir mavzuda to'liq fikrni ifodalaydi. Matn tillarni o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni mustahkamlashning asosiy vositasidir.

Til o'rganuvchilarning maqsadiga ko'ra ularga taqdim qilinadigan matnlar turli xarakterda bo'ladi, chunki matn orqali til ta'limining asosiy maqsadiga erishish mumkin. Biror nutqiy ko'nikmani mustahkamlash uchun ham, lingvistik bilimlarni o'stirish uchun ham matnga murojaat qilinadi. To'g'rirog'i har qanday egallanishi kerak bo'lgan ko'nikmalar matn bag'riga singdiriladi. Matn mashq va topshiriqlarning asosi hisoblanadi. Matnni bir necha xususiyatlar asosida turlarga ajratish mumkin.

Avvalo, matn yaratilishiga ko'ra og'zaki yoki yozma bo'ladi. Og'zaki matn so'zlash va tinglab tushunish texnikasini o'stirishga yordam bersa, yozma matn o'qib tushunish va yozish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Til ta'limi jarayonining boshlanishidan tugallanishigacha og'zaki va yozma matnlar bir xil uzviylikka ega.

Har bir matn muayyan kommunikativ vazifaga ega bo'lgani uchun ularning yana rasmiy matnlar (qonunlar, shartnomalar, buyruqlar, kelishuvlar), ilmiy matnlar (tadqiqotlar, dissertatsiyalar, maqolalar), texnik matnlar (qo'llanmalar, yo'riqnomalar, texnik hujjatlar, cheklar), publitsistik matnlar (gazeta maqolalari, blog va internet nashrlari), badiiy matnlar (ijodiy asarlar, ssenariylar), kundalik matnlar (suhbatlar, SMS xabarlar, ijtimoiy tarmoq yozishmalari) kabi turlarini sanash mumkin. Til bilishning boshlang'ich bosqichida rasmiy va badiiy matnlar biroz murakkablik kasb etadi. Texnik matnlar, publitsistik matnlar va kundalik matnlarning

¹ Rasulov Namoz Murodulloyevich, O'zMU o'qituvchisi

ahamiyati katta ekanligini unutmaslik kerak. Bu turdagi matnlarda grammatik va leksik birliklar biroz murakkabdek tuyulishi mumkin, lekin boshlang'ich darajada bu vaziyatlar til o'rganuvchi uchun hamroh hisoblanadi. Xususan, kundalik matnlarni oladigan bo'lsak, suhbatlar, SMS xabarlar, ijtimoiy tarmoq yozishmalarisiz muloqotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu jarayonda faol grammatik ko'nikma va faol leksika tushunchasi savol ostida qoladi. Demak, bugungi chet til ta'limi vaziyatga mutanosib yondashishi muhimdir.

Shuningdek, tuzilishiga ko'ra matnlarning monologli matn (ma'ruza), dialogli matn (suhbat), polilogli matn va aralash matn (intervyu) kabi turlari mavjud. Biror tilni amaliy o'rganish jarayonida dialogli matnlar yetakchilik qiladi.

Dialog tilning nutqqa ko'chirilishida har doim kamida ikki kishi muloqotini nazarda tutadi, chunki u so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida voqelanadi. Bunda shu narsa xarakterliki, so'zlovchi bilan tinglovchi o'rinlari almashib turadi. Dialogning lingvistik tahlili bilan shug'ullanganda har doim u monolog bilan qiyos qilinadi, zotan, monolog kimgadir qaratilmayli, dialog esa har doim kimgadir qaratilgan bo'ladi va uning ishirokida shakllanadi. [3; 52]

"Tanishuv", "Salomlashish-so'rashish", "Bankda", "Bozorda", "Shifokor huzurida", "Mehmonxonada", "Qanday borsam bo'ladi?", "Sartarosh bilan", "Taksida ketaman" kabi nutqiy mavzularning asosini dialogli matnlar tashkil qiladi. Buning bilan mutlaq dialogli matnlar ta'limning barcha vaziyatlarida yetakchilik qiladi deb bo'lmaydi. "Mening oilam", "Mening bir kunim", "Do'stlarim kimlar", "Kinodagi taassurotlar", Samarqand – tarixiy shahar" kabi mavzularda monologli matnlarni, o'rni bilan aralash matnlarni ham uchratish mumkin.

Maqsadiga ko'ra matnlarni axboriy matnlar (xabarlar, ma'lumotnomalar), tasviriy matnlar, tahliliy matnlar, ko'rsatma beruvchi matnlar va faktologik matnlarga ajratib o'rganish mumkin. Boshlang'ich darajadagi til ko'nikmalarini egallashda matnning bu turidagi barcha qismlar muhim sanaladi. Masalan, "Mening shahrim" nutqiy mavzusi bevosita tasviriy matnni talab qiladi, "Palov – milliy taom" nutqiy mavzusida ko'rsatma beruvchi matnlar yordamga keladi. "Bugun havo qanday" nutqiy mavzusi tahliliy matn bilan gavdalansa, "Mustaqil O'zbekiston" nutqiy mavzusida faktologik matn namunasini uchratishimiz mumkin.

Til ta'limida autentik va noautentik matnlar ham alohida hodisa hisoblanadi. Nisbatan yangilik hisoblangan bu turli matnlar til ta'limi jarayonida o'ziga xos xarakterga ega.

Til ta'limida "autentik" tushunchasi til va nutq materialining real hayotda nutqiy muloqotni amalga oshirishni ta'minlaydigan xususiyatini anglatadi. Autentik material, u xoh matn bo'lsin, xoh videomaterial yoki audiomaterial bo'lsin, tilni o'rgatish maqsadida yaratilgan bo'lmaydi. Shu bois autentik matn deganda til egalari uchun yozilgan va ta'limiy maqsadlarga qaratilmagan matn tushuniladi.[4; 172-185] Ko'rinadi til ta'limining boshlang'ich bosqichida autentik matnlardan emas, ko'proq noutentik materillardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Professor G. Asilova o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish sohasida, garchi autentik materiallar uchrab tursa-da, ularning tanlanishida tasodifiylik ko'proq ekanligini qayd etadi. [5; 172-185] Chunki o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatish tajribasi juda yuqori darajada bo'lmagani uchun, unga yondashuv ham biroz an'anaviy shaklda kechgan.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o'qitish metodikasida matn tilni o'rganishning muhim birligi bo'lib hisoblanadi. Matn orqali til o'rganuvchi o'zga madaniyatni qabul qilishga yordam beradigan bilimlarni oladi, o'rganilayotgan til mansub bo'lgan mamlakatning geografik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tuzilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shuningdek, matnlar orqali grammatik bilimlarni va leksik ko'nikmalarni matnosti mashq va topshiriqlar asosida mustahkamlash mumkin.

Matnlar faqat nutqiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi vosita bo'libgina qolmay, lingvistik bilimlarni ham o'zida mujamma etgan yaxlit tizimdir. Til ta'lida matnlarni yaratilishi, tuzilishi, kommunikativ vazifasi va maqsadiga ko'ra turlaridan o'rinli foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Asadova, C. S. qizi Timirxanova, NV (2022). *A quick and easy method of teaching english for primary school. international conference on learning and teaching*, 1(1).
- [2]. Asadova Chekhrangiz, Dr. Ramesh Singh. (2025). *The use of methods in the translation of literary texts. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 401–404. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/2512>
- [3]. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). *Ingiliz tilida lug'at yodlashning samarali usullari. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 152-155).
- [4]. Asilova G. *O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari – Foreign Languages in Uzbekistan*, 2023, No 6 (53), 172-185
- [5]. Qurbonova M. *Matn tilshunosligi – Toshkent. Universitet nashriyoti – 2014. B. 3.*

- [6]. Salimovna, C. (2024). *Ingliz tilida talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish. tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 1(2), 275-277.
- [7]. Salohiddin, K. (2024). *Modern approaches to teaching english as a foreign language. modern problems in education and their scientific solutions*, 1(2), 24-28.
- [8]. Turniyozov N. *Matn lingvistikasi – Samarqand. SamDCHTI*, 2004. B.52.
- [9]. <https://www.efset.org/cefr/a1/>